

## O'ZBEK TILIDA KELISHIK KATEGORIYASINING O'RGANILISH MASALASI VA OLIB BORILISHI

Manija Qudratova Shohmansur qizi,

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

### THE PROBLEM OF STUDYING AND IMPLEMENTING THE ORIGIN CATEGORY IN THE UZBEK LANGUAGE

Manija Gudratova Shohmansur daughter,

Faculty of Philology, Termiz State Pedagogical Institute

3rd level student of Uzbek language and literature

### ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ КАТЕГОРИИ ПРОИСХОЖДЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Манижа Кудратова, дочь Шохмансур,

Филологический факультет Термезского государственного  
педагогического института

Студентка 3 ступени узбекского языка и литературы

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilida kelishik kategoriyasining o'r ganilish masalasi va olib borilishi yorqin bayon qilindi. Barcha kelishik kategoriyasi va ularning qanday tarzda foydalanilishi haqida fikr yuritildi. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanildi va tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** kelishik, kategoriya, bosh, tushum, qaratqich, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi, tejab-tejalmay.

**Abstract:** In this article, the study of the category of agreement in the Uzbek language and its implementation were clearly described. Category of agreement in uzbek language and how they are used have been discussed. Also, interactive methods were used and analyzed.

**Keywords:** case, category, thrift, pointer, nominative, accusative, possessive, dative, ablative, withdrawal, sparingly.

**Аннотация:** В этой статье было четко описано изучение категории согласования в узбекском языке и ее реализация. Обсуждались категории согласования в узбекском языке и то, как они используются. Также использовались и анализировались интерактивные методы.

**Ключевые слова:** падеж, категория, бережливость, указатель, именительный, винительный, притяжательный, дательный, творительный, изъятие, экономно

**Kirish/Introduction.** Ismlarni boshqa so'z-larga tobelanitirib bog'lashga xizmat qiluvchi qo'shimchalar kelishik shakllari deyiladi. Kelishik esa ot yoki otlashgan so'zning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi grammatik shakl hisoblanadi. Kelishik shakllari kelishik kategoriyasini tashkil qiladi. Kategoriya atamasi esa tilshunoslikka falsafa fanidan kirib kelgan termin hisoblanadi. U falsafada "obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiyl tushuncha" tarzida ta'riflanadi. Kelishik qo'

shimchalari doimiy ravishda tobe so'zga qo'shib qo'llaniladi. Masalan, sizdan katta, darsga bormoq, sumkani olmoq, darsga tayyorlanmoq kabi. Kelishik qo'shimchalari ko'makchilar bilan sinonim bo'lib qo'llaniladi. Kelishiklar bilan ifodalangan birikmalar aniq, ko'makchilar bilan ifodalangan birikmalar esa mavhum bo'ladi. Yo'nalish ma'nosidagi birikmlarda bu hol sezilarli darajada kuzatiladi. Masalan, uyiga ketdi – uy tomon ketdi. Shuningdek, boshqa ko'makchilar bilan ham bu hol kuzatiladi. Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan so'zning fe'lga va



E-mail:

[manijaqudratova@gmail.com](mailto:manijaqudratova@gmail.com)

Tel: +998 91 510 78 83

<https://orcid.org/0009-0001-4999-4494>

ba'zan boshqa so'z turkumiga o'z munosabatini ifodalaydigan formasidir.

Kelishik kategoriyasi (qisqa KK) morfologik kategoriya sirasida ustuvor sintaktik tabiat bilan ajralib turadi. U EK bilan birgalikda sintaktik shakllarning so'z birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. KKning UGMsi – “sintaktik qurilmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash”. Bu bilan u EKga qarama-qarshi tursa, fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi, bog'-lovchilar va ko'makchilarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli jihatga ega. O'zgalovchi kategoriya shakllaridan barcha mustaqil so'zni sintaktik aloqaga kiritish, so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, o'zgalovchi kategoriyasi fagaqt fe'lga xos va fe'llarning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etishi bilan lug'aviy-sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun ular “fe'l kelishiklari” deb ham yuritiladi. Bog'lovchilardan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib, so'z birikmalariga xosligi hamda grammatik ko'rsatkich (qo'shimcha) ekanligi bilan farqlanadi.<sup>1</sup> O'zbek tilida olti shaklli kelishik mavjud bo'lib, ular bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishigi, o'rin-payt, jo'nalish va chiqish kelishigidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligi umumiy o'rta ta'lim “Ona tili”, akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar va filologiya yo'nalishi “Hozirgi o'zbek adabiy tili” o'quv dasturlarining bevosita davomi bo'lgan 5A220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) bakalavri yo'nalishi uchun mo'ljallangan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” namunaviy o'quv dasturi asosida yozilgan. Darslikni yaratishda o'zbek tilini substansial tadqiq qilish natijasida erishilgan yutuqlarga tayanilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tilshunos G'. Zikrillayevning fikriga ko'ra, fe'lning shaxsni ifodalagan shakli ham, subyekti ham uning kesimlik belgisini bildiradi. F.Safarovning fikrlarida ham bunga yana bir bora ishonch hosil qilinadi. Uning fikriga ko'ra, o'zbek tilida qo'shimcha bilan ifodalanadigan ya'ni morfologik ega ham borligini e'tirof etib, o'zbek tilida ifodalanish usuli bo'yicha egani ikki turga ajratgan:

1. Morfologik ega, masalan, izla deganda II-shaxs birlik ma'nosini bildiruvchi ega ya'ni, sen nazarda tutiladi. Yoki o'qituvchimiz deganda I-shaxs ko'plik ma'nosini anglashiladi.

2. Lug'aviy ega esa so'z, so'z birikmasi va iboralar bilan ifodalanishidir. Masalan: Qor yog'di. U ketdi. Qo'ng'iroq chalindi. Dars tugadi. O'qituvchi gapirdi. Biz boramiz. Sen ketasan.

Kelishik kategoriyasi morfologik kategoriya sirasida ustuvor sintaktik tabiat bilan ajralib turadi. U egalik kategoriyasi bilan birgalikda sintaktik shakllarning so'z birikmasiga xos guruhini tashkil etadi va gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. Kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini sintaktik qurilmada tobe so'zni hokim so'zga bog'lash vazifasini bajaradi. Kelishik turkumni emas, balki sintaktik vazifalarni belgilovchi shakldir. Demak, bu jihatdan kelishik asl turkumlararo forma hisoblanadi. Biroq kelishik barcha turkumlarga, barcha bo'laklarga xos emas. Masalan, bu grammatik kategoriya tabiiy ravishda otlarga mansub, leksemaning nutqda namoyon bo'lishi uchun zaruriy shakllardan biri hisoblanadi. Otlardan tashqari, kelishik shakllarini olib ishlataligandalar: fe'lning harakat nomi shakli, jamlovchi sonning ba'zi ko'rinishlari. Kelishik kategoriyasini qabul qiluvchilar guruhiga otlashgan so'zlarni ham kiritish mumkin. Bular uchun kelishik zaruriy birlamchi forma emas: kelishik shakli bu so'zlarga ma'lum sintaktik vazifa talabi bilan qo'shiladi, xususan, o'zbek tilida kelishiklar qat'iy bitta qo'shimchaga ega. Shu qo'shimchaning turli variantlari esa farq qiladigan yoki qarama-qarshi ma'noni anglatish uchun xizmat qiladigan shakllar emas. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga dan tashqari -ka, -na, -qa, -a formasida bo'lsa ham harakat yo'naltirilgan tomonni ko'rsatish uchun foydalananadi. Yoki chiqish kelishigi qo'shimchasining hozirgi adabiy tilda ishlataligand shakli -dan bo'lsa ham, asosan, harakatning boshlangan o'rnini yoki paytini bildirib keladi. Demak, o'zbek tilida kelishik qo'shimchalarining turli formada kelishi ma'no nozikliklarini keltirib chiqarmaydi. Kelishik qo'shimchalari o'zi qo'shib kelgan so'zdan ayrim olinganda abstrakt grammatik kategoriya hisoblanadi. Uning ma'nosini o'zi qo'shib kelgan so'z ma'nosidan ajratib tasavvur qilish

<sup>1</sup> Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M – Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent – 2009.

mumkin emas. Masalan, -ning, -ni, -ga, -da, -dan deganimizda ulardan biror ma’no anglash qiyindir. Ammo maktabning, maktabda, maktabdan so‘zlar tarkibida uch xil ma’no hosil bo‘lmoqda. Hozirgi o‘zbek tilida bosh kelishikdan tashqari barcha kelishiklarning har biri alohida olinganda bir necha xil fonetik variantlarga ega. Kelishik shakllarining qo‘llanishi va olib borishini o‘rganishda bir qancha interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin. Bular dan “Konseptual jadval”, “Tezkor savol-javob”, “Klaster”, “Chehralar”, “Venn diagrammasi”, “A4 format” “Insert”, “BBB” va shu kabi interfaol ta’lim shakllarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu interfaol ta’lim shakllari “Grafik organayzerlar” deb ham yuritiladi. Kelishik kategoriyasini o‘rganishda “Chehralar”, “4,5,6,7” nomli metodlarning qo‘llanishi yuzasidan mulohaza yuritildi.

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Kategoriya tushunchasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan: “Kategoriya yun. kategoriya – ayplash, ta’na qilish. 1. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalovchi umumiy tushuncha. 2. Muayyan belgilarning umumiyligi bilan birlashgan narsa, hodisa, shaxslar turi, turkumi, guruh; daraja. 3. Ilmiy terminologiyada – predmet turlarini yoki ularning umumiy belgilarini bildiruvchi tushuncha.

Mavzu o‘rganish jarayonida olingan bilimlarni turli metodlar orqali mustahkamlash va o‘rganish mumkin. Bu jarayonlarda qo‘llanilgan metodlar yangi bilimlarni beradi, bilimlarni rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Xususan, 4,5,6,7 nomli metodda katakchalar chiziladi va o‘tilgan mavzu yuzasidagi atamalar ushbu jadvalga joylashtiriladi. Bu jarayonda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va fikrni jamlab olish xususiyatlari kuzatiladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini nuqtaga jamlanadi va uyga vazifa shu tariqa mustahkamlanadi.

Masalan:

O‘	r	i	n			
T	u	sh	u	m		
Ch	i	q	i	sh		
J	o‘	n	a	l	i	sh

Shuningdek, “Chehralar” metodida o‘zlash tirgan bilimlar, yodimdan ko‘tarilgan ma’lumot, qo‘srimcha olishim kerak bo‘lgan ma’lumotlar

O‘zlashtirilgan bilimlar	Yoddan ko‘tarilgan ma’lumot	Qo‘srimcha olinishi kerak bo‘lgan ma’lumot
Kelishiklar belgili, belgisiz, qisqargan holda va almashinib qo‘llanilishi, kelishiklarning sinonimligi	Kelishiklar qachondan boshlab muomalada bo‘lganligi	Kelishiklar-ning qo‘llanilish shakllari

aniqlab olinadi. Bunda muayyan mavzular bo‘yicha bilim darajani aniqlash va baholay olish imkonini beradi. Unda qo‘llanish jarayoni guruh yoki jamoa bo‘lib amalga oshiriladi. Guruh bilan bajarilgan vaqtida mashg‘ulotlar yakunida muhokama qilinadi va bajarilgan ishlar tahlil qilib beriladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion, Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, barcha kelishiklar o‘zining vazifasiga ega va ko‘makchilar o‘rnida qo‘llanila oladi. Shuningdek, aynan bir kelishik o‘rnida boshqa kelishik sinonim sifatida ishlataladi. Kelishik kategoriyasi va uning o‘rganilish masalasi, xususan, kelishik kategoriyasining olib borilishini tahlil qila olish, fanda buni samarali qo‘llay olish natijasini beradi. Shuningdek, kelishik kategoriyalarining o‘rganilishi, mavzu bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lish mavjud bilimlarni boyitishga bo‘lgan ehtiyojlarni oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Baxtiyor Mengliyev. Hozirgi o‘zbek tili. – Dars-lik, Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. – 200 b.
5. Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1981.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.T., 2005.
7. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: 1989.
8. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. - T.: Fan, 1975. - 548 b.
9. Ne’matov X.Bozorov.O.Til va nutq. O‘qituvchi1993.
10. Ne’matov H. va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi. - T.: Universitet, 2000.
11. Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 2013.